

PARLAMENT FAOLIYATIDA SIYOSIY PARTIYALARNING ISHTIROK ETISH SHAKLLARI

Ibroximova Madina Qaxramonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Davlat boshqaruvi huquqi" yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17599599>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning oliy davlat vakillik organi sanaladigan parlament faoliyatida xalq tomonidan saylangan va ularning manfaatlarini bevosita ifoda etuvchi siyosiy partiyalarning ishtirok etish usullari hamda shakllari haqida izlanishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Parlament, siyosiy partiyalar, saylov, fraksiya, qonun ijodkorligi, deputatlar guruhi

KIRISH

Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan parlament faoliyatida bevosita ishtirok etadi. Partiyalar parlament orqali o'z elektoratining manfaatlarini ifoda etadi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol rol o'ynaydi. Shu bois, parlamentda siyosiy partiyalarning ishtiroki — mamlakat siyosiy tizimining barqarorligi, xalq irodasining ifodalanishi va hokimiyatning qonuniy asosda shakllanishining muhim kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 74-moddasida: "Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar."

"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunda esa "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun, siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida tuziladi. Fraksiyalar fraksiyaning rahbari bergan tegishli ariza va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan ro'yxatga olinadi."

ASOSIY QISM

Siyosiy partiyalarning parlament faoliyatida bevosita ishtirok etishning quyidagi bir qancha asosiy shakllarini ko'rsata olamiz.

Birinchidan, siyosiy partiyalarning parlamentdagi o'rni masalasi:

Siyosiy partiyalar parlamentga o'tish uchun saylovlarda ishtirok etadi va natijalarga ko'ra o'z vakillarini deputat sifatida olib kiradi. Shu orqali ular parlament tarkibida o'z fraksiyalarini shakllantirib, qonun ijodkorligi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol qatnashadi. Parlamentda partiyalar o'rtasidagi kuchlar nisbati hukumat siyosatining yo'nalishini belgilovchi asosiy omildir.

Ikkinchidan, fraksiyalar orqali ishtirok etish: Parlamentda partiyalar o'z fraksiyalarini tashkil etadi. Fraksiya – bu parlamentdagi bir partiya deputatlarining siyosiy birlashmasi bo'lib, ular umumiy dastur va siyosiy yo'nalish asosida faoliyat yuritadilar. Fraksiyalar:

- Qonun loyihalarini ishlab chiqadi;
- Siyosiy masalalarda o'z pozitsiyasini bildiradi;

- Hukumat faoliyatini muhokama qiladi va unga ta'sir o'tkazadi.

Shuningdek, fraksiyalar parlament qo'mitalarida vakillikka ega bo'lib, u yerdagi muhokamalarda partiya manfaatlarini himoya qiladi.

Uchinchi shakli - qonun ijodkorligida ishtirok etish:

Siyosiy partiyalar o'z deputatlari orqali qonun tashabbusi huquqidan foydalanadi. Ular jamiyat ehtiyojlariga mos qonun loyihalarini ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilishda faol qatnashadi. Qonunlar partiyaning dasturiy maqsadlari va saylovchilarining manfaatlarini aks ettiradi.

To'rtinchidan, hukumatni shakllantirish va nazorat qilish: Parlamentda ko'pchilik o'rinni qo'lga kiritgan siyosiy partiya yoki koalitsiya hukumatni shakllantiradi. Shu tariqa, hukumat siyosati va parlament faoliyati o'zaro uyg'unlikda olib boriladi. Shu bilan birga, oppozitsion partiyalar hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi, bu esa demokratiyaning muhim tamoyili — "nazorat va muvozanat" (checks-and-balance) tizimini ta'minlaydi.

Va oxirgi ishtirok etishdagi ko'rinishi qo'mitalar va komissiyalarda ishtirokdir:

Parlament qo'mitalari — qonun loyihalarini dastlabki tahlil qilish va takomillashtirish jarayonining asosiy bo'g'inidir. Siyosiy partiyalar vakillari ushbu qo'mitalarda faol qatnashib, turli sohalaridagi qonunlar mazmunini shakllantirishda ishtirok etadi. Bu orqali partiyalar o'z siyosiy pozitsiyalarini amaliy tarzda ifoda etadi.

XULOSA

Parlament faoliyatida siyosiy partiyalarning ishtiroki – demokratik jamiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Ular nafaqat qonun ijodkorligida, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalq irodasini ifoda etish va davlat siyosatini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, siyosiy partiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish parlament demokratiyasini yanada rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ma'lumki, AQSh (Kongress), Germaniya (Bundestag), Fransiya (Milliy Assambleya) kabi rivojlangan demokratik davlatlarda ham parlament faoliyatida siyosiy partiyalarning faol ishtiroki demokratik boshqaruvning asosi hisoblanadi. Partiyalar o'rtasidagi sog'lom raqobat siyosiy muvozanatni ta'minlaydi, xalq manfaatlarini ifodalovchi qonunlar ishlab chiqilishiga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ham siyosiy partiyalarning parlamentdagi rolini kuchaytirish, ularning tashabbuskorligini oshirish demokratik islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni
3. Odilqoriyev X. T, Razzoqov D. X. Siyosatshunoslik: Darslik. –T.:
4. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 289 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Parlament huquqi. Zulfiqorov Sh. O'quv qo'llanma.-T.: TDYU, 2009.- 187 b.
6. Internet manbalari